

TASHQI IQTISODIY ALOQALARNING IQTISODIY-GEOGRAFIK XUSUSIYATLARI

Tursunaliyeva Dilshoda Tillaboy qizi

Namangan davlat universiteti

Geografiya yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Mazkur ishda O'zbekistonning mustaqillikka erishganidan keyin dunyo hamjamiyatida tutgan o'рни va O'zbekistonni Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan har tomonlama olib brogan faol tashqi siyosati hamda tashqi savdo aylanmalarida Markaziy Osiyo davlatlarining ulushi haqida qisqacha ma'lumot va uning iqtisodiyotida ushbu davlatlarining ahamiyati haqida qisqacha ma'lumotlar berib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *“Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida”, “Chet el investitsiyalari va xorijiy sarmoyadorlar faoliyatining kafolatlari to'g'risida”, O'zbekistonning Qozog'iston bilan tashqi savdo aylanmasi, Qirg'iziston bilan tashqi savdo aylanmasi, Tojikiston bilan tashqi savdo aylanmasi, Turkmaniston bilan tashqi savdo aylanmasi,*

Mustaqil O'zbekiston nafaqat jahon siyosati balki jahon iqtisodiyotiga ham tez kirib bormoqda va qator mamlakatlar bilan savdo-sotiq aloqalarini o'rnatish va rivojlantirishga intilmoqda. Tashqi iqtisodiy aloqalar xalqaro hamkorlikning eng muhim sohalaridan biridir. Turli mamlakatlar bilan iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy aloqalarini tobora takomillashib borishi, ayrim tarmoqlarni zamonaviy texnika va texnologiya bilan qurollanishga, yer-suv, qazilma boyliklar va mehnat resurslaridan samarali foydalanish imkonini yaratadi.

Hozirgi davrda xalqaro mehnat taqsimotida, tashqi iqtisodiy aloqalarni samarali yo'lga qo'yish va kengaytirishda faol ishtirok etish uchun respublikada katta imkoniyatlar mavjud.

O'zbekiston juda qadim zamonlardan buyon ko'hna karvon yili-Buyuk ipak yo'lida joylashib, tashqi dunyo (G'arb bilan Sharq) bilan faol iqtisodiy aloqalar olib borgan. Mustaqillik sharofati bilan esa mamlakatimiz iqtisodiyotida yangi yo'nalish - tashqi dunyo bilan turli sohalarda hamkorlikka keng yo'l ochildi. Endilikda O'zbekiston tovarlar, kapital, ishchi kuchini mamlakatlararo tranzit etishga, jahon iqtisodini integratsiyalash, yirik transmilliy va xalqaro loyihalarni amalga oshirishga qodir.

Mamlakatda tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish va tartibga solish maqsadida Tashqi iqtisodiy aloqalar agentligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar milliy banki, bojxona qo'mitasi tuzildi.

Tashqi iqtisodiy aloqalar sohasida yangi strategiya ishlab chiqilib, unda eksportning xom ashyoviy yo'nalishini bartaraf etish hamda xorijiy investitsiyalar oqimi kengayishiga ko'maklashish kabi yo'nalishlar belgilab olindi. Mamlakatda tashqi iqtisodiy aloqalar tizimi, ularni yo'lga qo'yishdagi asosiy tamoyillar ishlab chiqildi. Xorijiy davlatlar firma, bank tizimlari bilan aloqalarni barpo etish yo'lida siyosiy,

huquqiy va tashkiliy omillar yaratildi. “Tashqi iqtisodiy faoliyat to`g`risida”, “Chet el investitsiyalari va xorijiy sarmoyadorlar faoliyatining kafolatlari to`g`risida”gi va boshqa bir qator qonun va me`yoriy hujjatlar qabul qilindi. Ular tashqi iqtisodiy aloqalarni amalga oshirish, tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida xalqaro shartnomalar tuzish va ularni bajarish uchun sharoit yaratdi.

O`zbekiston jahon hamjamiyatiga dadil kirib borib, ko`pchilik davlatlar bilan iqtisodiy, texnikaviy, savdo-sotiq va madaniy aloqalarni amalga oshirmoqda. Tashqi aloqalar ham ko`p tomonlama, ham ikki tomonlama rivojlanmoqda.

Vatanimizda iqtisodiy faoliyatni keng ko`lamda rivojlantirish, yuksak taraqqiy etgan davlatlardagi ishlab chiqarishning texnologiya va iqtisodiy jarayonlari bilan tanishish, xorijiy sarmoyadorlar bilan hamkorlikda qo`shma korxonalar, supermarketlar, savdo filiallari tashkil qilish imkoniyati yaratilmoqda

2021 yilning yanvar-dekabr oylari yakuni bilan **O`zbekistonning Qozog`iston bilan tashqi savdo aylanmasi 3 910,5 mln. dollarni tashkil etib, eksport hajmi 1172,1 mln. dollarga, import hajmi esa 2 738,4 mln dollarga yetdi.**

Qirg`iziston bilan tashqi savdo aylanmasi 952,6 mln. dollarni tashkil etib, eksport hajmi 791,1 mln. dollarga, import hajmi esa 161,5 mln dollarni tashkil etdi.

Turkmaniston bilan tashqi savdo aylanmasi 881,9 mln. dollarni tashkil etib, eksport hajmi 191,3 mln. dollarga, import hajmi esa 690,6 mln dollarga yetdi.

Tojikiston bilan tashqi savdo aylanmasi 604,5 mln. dollarni tashkil etib, eksport hajmi 500,9 mln. dollarga, import hajmi esa 103,6 mln dollarni tashkil etdi.

Quyidagi rasmda qo`shni davlatlar bilan iqtisodiy aloqalar infografika²¹.



²¹ <https://review.uz/uz/post/infografika-torgovlya-uzbekistana-so-stranami-centralnoy-azii-v-2021-godu>

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, O'zbekiston Respublikasi Mustaqillikka erishganidan keyin rivojlanish yo'lini kuzatar ekanmiz O'zbekiston hukumatining bu borada olib borgan islohotlari o'z samarasini yaqqol ko'rsatdi. Hukumatning olib borgan siyosati, ayniqsa tashqi iqtisodiy faoliyati olib borgan ishlari tahsinga loyiqdir. Rivojlangan va MDH mamlakatlari bilan investitsiyaviy, savdo-iqtisodiy hamkorlik yildan-yilga rivojlanmoqda. Bu albatta, mamlakatimizda yaratilayotgan qulay investitsion muhit, xorijiy korxonalar uchun yaratilayotgan shart-sharoit va imtiyozlarning mahsulidir. O'zbekiston o'z taraqqiyot yo'lidan dadil borar ekan, xorijiy davlatlar bilan, xususan, rivojlangan va MDH mamlakatlari bilan o'zaro teng manfaatli iqtisodiy aloqalarni rivojlantirib boradi. Bu albatta, respublikamiz iqtisodiyotining jadal rivojlanishida, O'zbekistonning rivojlangan mamlakatlar qatoridan joy olishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatida rivojlangan va MDH mamlakatlarining o'rni haqida quyidagi fikrlarni bildirishimiz mumkin:

- Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatini tartibga soluvchi huquqiy asoslar yaratildi.

- O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatini belgilab beruvchi huquqiy asoslarning yaratilishida xalqaro huquq normalariga rioya qilindi.

- O'zbekiston tashqi siyosat tamoyillariga qat'iy rioya qilgan holda rivojlangan va MDH mamlakatlari bilan keng ko'lamli hamkorlikni yo'lga qo'ydi.

- O'zbekiston va MDH o'rtasidagi aloqalarning muhim jihati – iqtisodiy yo'nalishdagi hamkorlik hisoblanadi;

- O'zbekiston xalq xo'jaligini rivojlantirishda MDH davlatlari bilan hamkorlik bundan keyin ham muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston va MDH mamlakatlari o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar tahlil qilinganda quyidagi xulosalarga kelindi:

- Hamkorlikning ikkinchi davri (2000-2019-yillar)da iqtisodiy aloqalarning o'sishi kuzatildi.

- O'zbekiston rivojlangan va MDH mamlakatlar bilan neft-gaz sohasidagi hamkorlik istiqbolli yo'nalishlardan hisoblanadi. Bu borada rivojlangan va MDH mamlakatlarining investitsiyalarini jalb qilish borasidagi ishlarni yanada takomillashtirish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Asanov G.R., Nabixonov M., Safarov I. O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy jo'g'rofiyasi. -T.: O'qituvchi, 1994. – 320 bet
2. Axmedov E.A. O'zbekiston shaharlari mustaqillik yillarida. –T.: Fan, 2002. – 278 bet
3. Axmedov E.A., Boltayev M.J. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. Ma'ruzalar matni. Toshkent, 2000. – 280 bet

4. Axmedov E.A. va va boshqalar. Mustaqil O`zbekiston. – T.: Sharq 2001. – 258 bet
5. Axmedov E.A., Saydaminova Z. O`zbekiston Respublikasi. Qisqacha ma`lumotnoma. – T.: O`zbekiston, 1995. – 196 bet
6. Baratov P. O`zbekiston tabiiy geografiyasi. – T.: O`qituvchi, 1996. – 376 bet
7. Vahobov H. Tillaboyeva M. Iqtisodiy geografiya asoslari. – T.: O`qituvchi, 2001. – 320 bet

INTERNET RESUSRLAR:

1. www.gazeta.uz
2. www.strategy.uz/index.php?news=1317&lang=uz
www.review.uz/uz/post/infografika-torgovlya-uzbekistana-so-stranami-centralnoy-azii-v-2021-godu